

INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI XITOIY TILIDA O'QISH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653671>

Babakulova Muqaddas Narkabulovna

SamDAQI katta o‘qituvchisi

Radjabova Madinabonu Raimovna

SamDCHTI Sharq tillari fakulteti 2112-guruh talabasi

raimovna03@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada interfaol ta'lim texnologiyalari asosida talabalarga xitoy tilida o'qitishning zamonaviy usullari hamda metodlari yoritilgan. Interfaol ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilingan ta'lim samaradorligi, talabalar faolligi oshishi kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: *texnologiya, ta'lim, metod, an'anaviy, noan'anaviy, interfaol, aqliy “hujum”, og‘zaki va yozma nutq, tanqidiy fikrlash, motiv.*

ABSTRACT

This article describes the modern methods and techniques of teaching students Chinese based on interactive educational technologies. There is an increase in the effectiveness of education, organized on the basis of interactive educational technologies, student activity.

Keywords: *technology, education, method, traditional, non-traditional, interactive, mental “attack”, oral and written speech, critical thinking, motivation*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны современные методы и приемы обучения студентов китайскому языку на основе интерактивных образовательных технологий. Отмечается повышение эффективности обучения, организованного на основе интерактивных образовательных технологий, активности учащихся.

Ключевые слова: *технология, обучение, метод, традиционный, нетрадиционный, интерактивный, ментальная «атака», устная и письменная речь, критическое мышление, мотивация.*

KIRISH

Hozirgi kunda yoshlarga shunday ta’lim-tarbiya berilishi kerakki, ular nafaqat ma’naviy merosimizni o‘rganibgina qolmasdan, ular o‘zlarining ilmlari va bir necha progressiv chet tillarni bilishlari bilan mamlakatni yanada rivojlantirishlari joizdir.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma’naviy harakatlaridandir. Ilm-fanni esa hozirda chet tillarni o‘rganish orqali yanada mukammal egallash mumkin. Chunki, ilm va til o‘rganish odamni ma’naviy yuksaklikka ko‘taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. O‘sib kelayotgan avlodning har tomonlama barkamol bo‘lishini ta’minlash uchun til o‘rganishning ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlari birligini kuchaytirish zarurdir.

Bugungi kun til o‘qitilishiga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?

Yoshlarda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladigan ijodiy qobiliyatlarni o‘stirib borish, fikrlashga undovchi, doimiy ravishda bilimlarini to‘ldirib borish – darslar samaradorligining birinchi galdagi vazifasidir.

Fikrimizning eng oldingi qatoriga talabalarning til o‘rganishdagi bilish jarayonini sursak bo‘ladi. Bilish jarayoni shunday faoliyatki, u o‘qituvchidan o‘zganing faoliyatini tashkil qilishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim murakkab jarayondir. Talaba darsda berilgan mavzuning tuzilishini tushunib yetsagina, bilimlarni haqiqatdan o‘zlashtirib olishi mumkin. Topshiriqlarda o‘zlashtirilgan materialdan to‘g‘ri foydalanish, o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirishning muhim ko‘rsatkichidir. Talabalarga dars davomida nafaqat yangi bilimlarni berish bilan kifoyalanib qolmasdan, ularda ilm olish va til o‘rganish ehtiyojlarini (motiv) kuchaytirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni, ularga o‘z harakatlarini rejalashtirishni yo‘lga qo‘yishni, bilish jarayoni harakatlari, operatsiyalari haqida ma’lumot berishni, fikrni bir joyga to‘play bilishni, maqsadni yo‘naltira bilish, intizomlilikka, erishilgan natijani to‘g‘ri baholay olishga o‘rgatish zarurdir.

Yangi tilni o‘rganishga qaror qilish, kasbiy zarurat va vaqtning tendensiyalariga mos kelish istagi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Agar ilgari fransuz yoki nemis tilini bilish savodli odam uchun odatiy hol bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ingliz tili bu o‘rinlarni mahkam egallab turibdi. Ammo arenada o‘zining muhim va dolzarbligini isbotlab, o‘rganilishi lozim bo‘lgan til paydo bo‘ldi. Bu XITOIY TILIdir

So‘nggi yillarda xitoy tili, o‘zining barcha murakkabliklariga qaramay, o‘zining "obunachilari" sonini muttasil oshirmoqda. Har yili tobora ko‘proq chet elliklar yashash, ishlash, til o‘rganish uchun Xitoyga ketmoqdalar. Bu, shubhasiz,

Xitoyning buyuk madaniyati yoki tarixi bilan emas, balki uning iqtisodiyoti bilan ham bog‘liqdir. 2008-yildagi inqiroz yillarida Xitoyning yangi iqtisodiy mo‘jizasi, butun dunyo miqyosida ishdan bo‘shaganlarning e‘tiborini jalb qila oldi.

Xitoy tilini o‘rganish interfaol usullar bilan o‘qitilsa ancha qiziqroq boladi.

Bu murakkab va mukammal vazifani interfaol ta‘lim texnologiyalari orqali darslarda talabalarning munozara, mulohaza, shiddat bilan o‘z aqliga “hujum” qilish, bilganlarini o‘z vaqtida va joyida ishlata bilish, kichik guruhlarda ishlash, tinglay bilish, o‘z fikrini bayon qila olish, og‘zaki va yozma nutq, tanqidiy fikrlash, tanqid natijasida o‘z kamchiligi ustida ishlash, tashkilotchilik, bajaruvchilik, tahlil qila olish kabi xususiyatlari shakllanadi. Eng asosiysi mustaqil-ijodiy fikrlovchi,erkin shaxs kamol topadi.

Bu texnologiyalar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi, ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi, natijada auditoriya jonlanadi, befarq, loqayd talabalarda ham mavzuga nisbatan motiv-mayl paydo bo‘ladi.

O‘qituvchi mehnatidagi eng asosiy mazmun ham ana shu bilimlarga nisbatan loqayd, “o‘z qobig‘i ichida”gi talabalarni bilimga,o‘z faniga qiziqish va intilishlarini tarkib toptirishdadir. Interfaol texnologiyalar aynan o‘sha passiv talabalar uchun mo‘ljallangan metoddir. Interfaol-zamonaviy darsining markazida talaba shaxsi turadi. An‘anaviy darsda bilim bu egallanishi lozim bo‘lgan cho‘qqi-dogma,ya’ni u bir joyda turibdi uni egallanishi uchun o‘qituvchi faol bo‘lishi o‘z metodiga ega bo‘lishi lozimdir. Bu ta‘limda (an‘anaviy) barcha talabalarning faol bo‘lmasliklari sababi shundaki, ta‘lim beruvchi tomonidan faqat asosli,to‘g‘ri fikrlar qabul qilinadi va baholanadi.O‘qituvchi mavzuni o‘zlashtirgan 3-4 talaba bilan so‘rash va nazorat-baholash ishlari olib boradi. Auditoriyada bilimlarni o‘zlashtirash bo‘yicha dinamik harakat ro‘y bermaydi.

Noan‘anaviy – interfaol ta‘limda esa, bilim – bu elastik-egiluvchan, bukiluvchan xarakterga ega, ya’ni u talabaga uning individual xususiyatlari hisobga olinib, yetkaziladi, uni egallash uchun cho‘qqini zabt etish emas, balki shunday texnologiya ta‘lim beruvchi tomonidan tanlanadiki, bunda talaba faol bo‘lib qiziqib, o‘yin tariqasida bilimlarga ega bo‘lganligini anglaydi.

Interfaol ta‘limning psixologik-pedagogik mohiyati shundaki, bunda talabalarga tezkorlik bilash ishlash tavsiya etiladi va miyaga qanday fikr kelsa, uni tanqidsiz, asoslamay, erkin fikr bildirish imkoni beriladi. Ana shunday vaziyatda “men bilmayman, bu noto‘g‘ri bo‘lsa kerak?!” deb fikrlovchi talabalar ham faollashadi, ularning noto‘g‘ri bo‘lsa ham o‘z fikrini bildira olish muhiti yaratiladi, asosiysi ularda ham bilimga nisbatan intilish sodir bo‘ladi va dars davomida

guruhning o‘zi to‘g‘ri va noto‘g‘ri fikrlarni ajratadi va bilimlar mag‘zini shakllantiradi.

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo o‘qituvchidan darsga oldindan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi.

Xitoy tilini o‘rganishga doir bir necha texnologiyalarni qo‘llash mumkin. Bunga quyidagilarni misol tariqasida keltiramiz:

“**Muz yorar**” usuli. Bu usul xitoy tili va bizning o‘rtamizdagi muzlarni eritishga yordam beradi. Bu texnologiyada guruh a‘zolari tug‘ilgan fasli bo‘yicha kichik guruhga ajratiladi va o‘z tug‘ilgan faslini Xitoy iqlimi asosida tasvirlab beradi. Bunda bizning Xitoy iqlimi va tabiati haqidagi tasavvurimiz kengayadi. Bunga qo‘shimcha tarzida xitoy tilida o‘rgangan so‘zlarimizdan 4 faslga moslashganlarini ham qo‘llasak bo‘ladi.

Misol tariqasida Xitoy tili grammatikasidan “**还**” **harakat davomiyligining ifodalanishi**” mavzusidagi dars ishlanmasini keltiramiz.

Talabalar umumiy soni 3 ga bo‘linishini hisobga olib, ulardan 3 kichik guruhlar shakllantiriladi. Kichik guruhlarini shakllantirishda ularning bir-birlari bilan ruhiy yaqinliklari hisobga olinadi, bu holat ularning bir guruhda ishlashlarini yengillashtiradi. Bunday kichik guruhni shakllantirishda talabalarga



kabi geometrik shakllardan tanlash tavsiya qilinadi. Bir xil geometrik shaklni tanlagan talabalar bir komandaga birlashadilar va berilgan tarqatma material ustida ishlaydilar.

1-Tarqatma material mavzusi: “**Ishning hali hanuz yakunlanmaganligini ifodalashda 还 hái ravishi ishlatiladi**”.

2-Tarqatma material mavzusi: “**还+sifat**”. Sifat darajasining o‘rtachaligini ifodalaydi”.

3-Tarqatma material mavzusi: “**还 hái ravishi inkor shaklda ham qo‘llanilishi mumkin**”.

Komandalar o‘zlariga nom tanlaydilar va nomlarini yozuv taxtasiga yozib qo‘yadilar. O‘qituvchi-boshqaruvchi tomonidan bugungi darsning MAX balli va mezonlari e‘lon qilinadi. Ular “FSMU” texnologiyasidan:

F - fikringizni bayon qiling

S - fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating,

M - fikringiz bayoni sababiga misol keltiring;


U - fikringiz bayonini umumlashtiring

foydalanib tarqatma materialni o‘zlashtirishga kirishadilar.

Talabalarga belgilangan vaqtda ishlash tavsiya qilinadi va javob variantlarini yozuv taxtasiga, har bir komanda o‘z komandasi nomi belgilangan joyga pishtiradi va bir kishi o‘z javob variantlarini taqdimot qiladi.

Yana bir mavzuni **"Nima uchun?"** interfaol texnologiyasi orqali ko‘rib chiqamiz:

“NIMA UCHUN XITOIY TILINI ORGANAMIZ?”



Interfaol usulda dars o‘tishning o‘ziga xos tomoni yana shundaki, bunda ta‘lim oluvchilar qat‘iy reglament asosida ishlaydilar. Belgilangan vaqtda o‘z bilim va fikrlarini tafakkurlab, tizimlab olishligi va vaqtdan unumli foydalanish bilan ham bu usul qimmatlidir.

Har bir komanda o‘z liderini tanlaydi va bu lider o‘qituvchi tomonidan komandalarga berilgan umumiy ballni komanda a‘zolari o‘rtasida adolatli taqsimlaydi, ya‘ni baholaydi. “Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak” degan Servantesning fikri liderlarga o‘qituvchi tomonidan

singdiriladi. Darsda barcha talabalar o‘z mehnatiga yarasha baholanadi va o‘z faoliyatlaridan u yoki bu darajada qoniqadilar. Zero, interfaol ta’limning asosiy shiori:

“Eshitganimizni unutamiz!”

“Yozganimizni tushunamiz!”

“Bajarganimizni bilamiz!”dir.

REFERENCES

1. J.G‘.Yo‘ldoshev “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” T.2008 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste’dod, 2008.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Yangi pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: 2006.
4. Sultanova L.A., Ziyamuhamedov J.T, Turatova A.M. Xitoy tili. (1 qism) - T. 2013y.
5. Saydaliev, T. K., Erkaev, E. T., & Djuraev, D. M. (2021). Review of abdulla kadiri's poetics in the novel "Days Gone By" in Russian translations. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 754-763.
6. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
7. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (74)), 124-127.
8. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
9. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в.* (pp. 84-88).
10. Odil ogli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
11. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 40-42.
12. Odil o‘g‘li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.

13. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
14. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
15. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
16. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.
17. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
18. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
19. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.
20. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.
21. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).
22. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.
23. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (78)), 11-18.
24. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

25. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
26. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
27. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
28. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
29. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
30. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
31. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
32. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
33. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
34. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
35. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
36. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
37. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).

38. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
39. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
40. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
41. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
42. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.